

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**IQTISODIYOT FAKULTETI**

*Qo‘lyozma huquqida*  
*UDK: 334.75: 130.3*

**XOLIYOROVA SHOXISTA QAHRAMON QIZI**

**MAHALLALARDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA  
XOTIN-QIZLAR BANDLIGINI TA’MINLASH**

**70310102 – “Iqtisodiyot” (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) mutaxassisligi  
bo‘yicha  
magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan**


**DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar:  
i.f.d., prof.v.b. D.I. Ro‘ziyeva**

**TOSHKENT - 2024**

Magistrlik dissertatsiya ishi “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida  
dastlabki himoyadan o‘tgan.


1 - sonli bayonnoma « 22 » aprel 2024 y.

Ilmiy rahbar:  i.f.d., prof.v.b. D.I. Ro‘ziyeva

Talaba:  Sh. Xoliyorova

Dissertatsiya Iqtisodiyot fakultetida 2024 yil “ 17 ” 05.

№ 1106 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

“Himoyaga tavsiya etiladi”  
“Yashil iqtisodiyot” kafedrasi mudiri,  
prof. I. Xotamov   
“ 07.05 ” 2024 yil

Himoya 2024 yil “ 20 ” 05 da  
“Texnopark” mas’uliyati cheklangan jamiyatda bo‘lib o‘tadi.

## ANNOTATSIYA

Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish, aholi turmush farovonligini ta'minlash va xotin-qizlar bandligini ta'minlashda muhim o'rin tutayotgan kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va ushbu faoliyat turi bilan shug'ullanishni istagida bo'lgan aholi qatlamini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash masalasi davlat siyosatining strategik yo'nalishlaridan biridir.

Mahallalarda tadbirkorlikni rivojlantirish asosida ayollar bandligini ta'minlashga qaratilgan nazariy materiallar va amaliy tahlil natijalarining ahamiyatini ochib berish maqsadida mavzuimiz doirasida tadqiqot olib bordik. Mavzuimiz doirasida olib borilgan tadqiqot ishlari, mahalliy va xorijiy adabiyotlarni o'rganib chiqdik. Ilmiy ishimizda nafaqat nazariy fikrlar, balki tadbirkorlik faoliyati bilan mashg'ul xotin-qizlar faoliyatining tahliliy jarayonlari o'rganildi. O'rgangan ma'lumotlarimiz va tahlil natijalaridan kelib chiqib, mamlakatimizda tadbirkorlikni rivojlantirish orqali ayollar bandligini ta'minlashda mahallabay ishlash tizimining roli katta ekanligi va uni davlat tomonidan yanada qo'llab-quvvatlash orqali samaraliroq foydalanish yuzasidan taklif va xulosalar ishlab chiqdik.

**Kalit so'zlar:** aholi turmush farovonligi, tadbirkorlik faoliyati, "sokin inqilob", samarali bandlik, YaIM, "Tadbirkor ayol" uyushmasi, YATT, Toshkent shahar xotin-qizlar tadbirkorlik markazi, Ayollarning tadbirkorlik faolligi indeksi, o'z-o'zini band qilish, "Ayollar daftari", masofaviy ish joylari, "xotin-qizlar.uz" platformasi.

## ANNOTATION

The issue of supporting small business and entrepreneurship, which plays an important role in the development of the country's economy, ensuring the well-being of the population, and ensuring the employment of women, and the state support of the population that wants to engage in this type of activity, is one of the strategic directions of state policy. In order to reveal the importance of theoretical materials and practical analysis results aimed at ensuring women's employment based on the development of entrepreneurship in neighborhoods, we conducted research within our topic. We studied the research works, domestic and foreign literature conducted within the framework of our topic. In our scientific work, not only theoretical ideas, but also analytical processes of the activities of women engaged in entrepreneurship were studied. Based on the information we have learned and the results of the analysis, we have developed proposals and conclusions regarding the role of the neighborhood work system in ensuring the employment of women through the development of entrepreneurship in our country and its more effective use through further support from the state.

**Keys words:** population well-being, entrepreneurship, "quiet revolution", effective employment, GDP, "Entrepreneurial Woman" association, Tashkent City Women's Entrepreneurship Center, Women's Entrepreneurial Activity Index, self-employment, "Women's Notebook", remote jobs, "xotin-qizlar.uz" platform.

## **АННОТАЦИЯ**

Вопрос поддержки малого бизнеса и предпринимательства, играющего важную роль в развитии экономики страны, обеспечении благополучия населения, занятости женщин и государственной поддержки населения, желающего заниматься этим видом деятельности, является одним из стратегических направлений государственной политики. Для выявления важности теоретических материалов и результатов практического анализа, направленных на обеспечение занятости женщин на основе развития предпринимательства в микрорайонах, мы провели исследование в рамках нашей темы. Мы изучили исследовательские работы, отечественную и зарубежную литературу, проведенную в рамках нашей темы. В нашей научной работе были изучены не только теоретические идеи, но и аналитические процессы деятельности женщин, занимающихся предпринимательством. На основе полученной информации и результатов анализа мы разработали предложения и выводы относительно роли системы работы микрорайонов в обеспечении занятости женщин через развитие предпринимательства в нашей стране и его более эффективного использования за счет дальнейшей поддержки со стороны государства.

**Ключевые слова:** благополучие населения, предпринимательство, “тихая революция”, эффективная занятость, ВВП, ассоциация “Предпринимательская женщина”, Центр женского предпринимательства города Ташкента, Индекс предпринимательской активности женщин, самозанятость, “Женский блокнот”, удаленная работа, платформа “xotin-qizlar.uz”.

## MUNDARIJA

<b>ANNOTATSIYA .....</b>	<b>3</b>
<b>KELTIRILGAN JADVALLAR RO‘YXATI.....</b>	<b>8</b>
<b>KELTIRILGAN RASMLAR RO‘YXATI .....</b>	<b>9</b>
<b>KELTIRILGAN QISQARTMALAR.....</b>	<b>10</b>
<b>KIRISH .....</b>	<b>11</b>
<b>Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi .....</b>	<b>12</b>
<b>Tadqiqot maqsadi va vazifalari .....</b>	<b>15</b>
<b>Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari.....</b>	<b>16</b>
<b>Tadqiqot ob’ekti va predmeti .....</b>	<b>17</b>
<b>Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat: .....</b>	<b>17</b>
<b>Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi.....</b>	<b>17</b>
<b>I BOB. ADABIYOTLAR SHARHI.....</b>	<b>19</b>
<b>1.1.Kirish.....</b>	<b>19</b>
<b>1.2 Mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlar .....</b>	<b>19</b>
<b>1.3. Mahalliy me’yoriy-huquqiy hujjatlar sharhi .....</b>	<b>22</b>
<b>II BOB. TADQIQOT METODOLOGIYASI.....</b>	<b>24</b>
<b>2.1. Tadqiqot dizayni .....</b>	<b>24</b>
<b>2.2. Ma’lumotlarni to‘plash jarayoni.....</b>	<b>24</b>
<b>2.3. Tahlil uchun qo‘llaniladigan usullar .....</b>	<b>25</b>
<b>2.4. Tadqiqotni o‘tkazish uchun zarur sharoitlar.....</b>	<b>25</b>
<b>2.5. Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi.....</b>	<b>26</b>
<b>2.6. Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy ahamiyati .....</b>	<b>27</b>
<b>III BOB. TAHLIL VA NATIJALAR.....</b>	<b>29</b>
<b>3.1.Mahallalarda tadbirkorlikni rivojlantirish asosida xotin-qizlar bandligini ta’minlashning nazariy asoslari. ....</b>	<b>29</b>
<b>3.2. Mahallalarda xotin-qizlar tadbirkorligi faoliyati tahlili.....</b>	<b>40</b>
<b>3.3. O‘zbekiston Respublikasida xotin-qizlar tadbirkorligini yanada takomillashtirish .</b>	<b>54</b>
<b>XULOSA .....</b>	<b>62</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR .....</b>	<b>64</b>
<b>Ilova.....</b>	<b>68</b>

## KIRISH

Sanoat jihatdan rivojlangan mamlakatlar tajribasiga ko'ra tadbirkorlik faoliyati bozor iqtisodiyotining asosiy unsurlaridan biri sifatida iqtisodiy o'sishni ta'minlash va yalpi ichki mahsulot tarkibini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra<sup>1</sup>, mamlakatimizda tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulotdagi (YaIM) ulushi 2022 yilda 51,6 foiz, 2023 yilda esa 51,2 foizga pasaygan va bu ko'rsatkich 2024 yil 1- kvartal ma'lumotlariga ko'ra 42,7 foizga teng.

Bugungi kunda ko'plab ilg'or sohalar singari tadbirkorlik faoliyat turida ham ayollar ishtiroki ortib borayotganining guvohi bo'lmoqdamiz. Bundan tashqari, ushbu faoliyat turini rivojlantirish mutaxassislarimiz oldida turgan siyosiy darajadagi muhim masalalardan biri hisoblanadi. Boisi, tadbirkorlikni rivojlantirish asosida aholining kambag'al qatlamini qisqartirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va shu orqali turmush darajasini yaxshilash g'oyasi yotadi. Ayniqsa, ayollar bandligiga ko'maklashish masalasi ko'plab tadbirkorlik subyektlari faoliyatini yo'lga qo'yish orqali hal etilmoqda.

Mamlakatimizda hududlarni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar "mahalla darajasigacha" tushirildi va "mahallabay" ishlash tizimi joriy etish va ushbu tizimning samarali natijasi sifatida mahallalardagi ish bilan band bo'lmagan xotin-qizlarga o'z tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun imtiyozli kreditlar ajratila boshlanganini, kasb-hunarga o'qitish ishlari jadal amalga oshirilib kelinayotganini ko'rishimiz mumkin.

"Hozirda dunyodagi 32,9% firmalar egaligida ayollar ishtirok etmoqda. Bu ko'rsatkich Xitoyda 64,2%, Irlandiyada 54,9%ni, O'zbekistonda esa 29,2% ni tashkil etadi. Shuningdek, mamlakatlarning xalqaro darajadagi nufuzini belgilovchi qator indekslarda ham ayollarning jamiyatdagi iqtisodiy-ijtimoiy holatiga alohida e'tibor

---

<sup>1</sup> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI RASMIY SAYTI  
STAT.UZ